

ILMIY TADQIQOTLAR JARAYONIDA YOSHLARNING INNOVATSION G'OYALARI

Nasimova Sohiba Yaxyayevna

SDTU o'qituvchisi

Bahronova Durnigor G'ayrat qizi

SDTU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ma'lumki, innovatsion g'oyalar, texnologik jihatdan ilg'or davlatlar va jahon miqyosidagi rivojlangan davlatlar ro'yhatida yetakchi o'rinni egallaydi. Shunday ekan, innovatsiyalar va bu boradagi ishlar, o'zimizning ilmiy mahoratimizni oshirish, yoshlarimiz, tadqiqotchilarimizni va olimlarimizning maqsadi, kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Xalqaro, zamonaviy, ta'lim, innovatsiya, fan-texnika, mohiyat, pedagogik mahorat, jamiyat.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy ta'lim sohasida yangi islohotlar boshlandi. Ta'limni boshqarish hukumat boshlig'i tomonidan qattiq tanqidlarga uchradi.

Respublika milliy ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muammosiga tizimli innovatsion yondoshishga qaratilgan normativ – huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi: – yangilikni qo'llashga tayyorgarligi; – pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; – novatorlik darajasi; – kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. [1]

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: “Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'p. Ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. YOsh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarur. Bu yo'lda hech narsani ayamaymiz... Jahonning etakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda”.

Aholisi ijtimoiylashgan jamiyat kuchli jamiyatdir. Zero, kuchli jamiyat – bu inson huquqlari va erkinliklarini, demokartik qadriyatlarni ustuvor biluvchi va inson omilini ro'yobga chiqaruvchi jamiyatdir [3]. Ijtimoiy faol shaxs esa bu – davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi va jamoaga etakchilik qiluvchi shaxsdir [4].

Ijobiy shaxsiy namuna - o'quvchilar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng ob'ektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga etib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish

jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. O'quvchilar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. YA.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi» [5]. Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo'lajak – mutaxassisning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari bilan kasbiy faoliyatning talablari o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish zarurligini anglab, tushunib olishdan iborat. Bunday tushunchaning hosil bo'lishi har bir yigit, qizda o'z bilimlarini oshirish ustida mustaqil ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga intilish hissini uyg'otadi. Ushbu dastur ana shu maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Maqolada yoshlarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda ilm-fan va innovatsion faoliyatning o'рни ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati dolzarb muamolardan biri hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.F.SHAROPOVA “Ta’lim texnologiyalari” darslik. – T.:”Novro’z” nashriyot. 2019. 7-13 betlar [1]
2. Mirziyoyev Sh.M. 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatning etakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvdagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2016 yil 31 dekabr
3. Государства и право. – Ж. 2002 г., №1 стр. 12.
4. Афанасьев В.Т. Системность и общество. – Москва: «Наука», 1989 г., стр. 342.
5. Azizxodjaeva N. N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: 2000 yil, 78-bet.
6. Sherzodovich, A. S., & Jamshedovich, B. F. THE MAIN FEATURES OF THE TRANSLATION OF LITERARY TEXT. Sciencepublish. org, 16.
7. Aslonov, S. S. (2020). Ingliz tili stilistikasi fanini o'qitishda fonostilistikaning o'рни. Интернаука, (16-4), 57-59.
8. Ruzimurodova, Z., & Aslonov, S. (2020). WHAT TO TEACH TO THE STUDENTS? TO TEACH STANDARD ENGLISH OR WORLD ENGLISHES?. In МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 367-369).
9. Аслонов, Ш. (2024). The importance of Artificial Intelligence in the teaching of translation theory and practice. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(5), 50-53.